



Abdulloh Yusuf Zaylaiyning hayot va ijodi

Sharipov Alisher

Toshkent islom instituti talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada “Nasbur-roy” asari bilan dunyoga mashhur boʻlgan Jamoliddin Zaylaiyning hayoti va yozgan asarlari haqida maʼlumot berdim.

Kalit soʻzlar: Somali, Mogatisho, Muharram.

Jamoliddin, Abu Muhammad, Abdulloh ibn Yusuf ibn Muhammad ibn Ayyub ibn Muso al – Hanafiy az – Zaylaiy¹ al – Qohiriydir². Uning kunyasi Abu Abdulloh boʻlib Jamoliddin taxallusi bilan mashhur³.

Jamoliddin Zaylaiy tavallud topgan joy. Zayla – Somali⁴ qirgʻogʻida, Habashiston qirgʻoqlarida joylashgan kichik shaharcha. Zaylaʼiyning qarindoshidan maʼlum boʻlishicha, u kishi Zayloda shaharchasida tugʻilgan. Misrda yashaganligi maʼlum. Bu yerda unga Zaylaʼ⁵ maʼnosida az – Zaylaiy nisbati berilgan.

Jamoliddin Zaylaiy Hanafiy Misriy hijriy VIII milodiy XIV asrning birinchi choragida hozirgi Somali davlatining Zaylaʼ shahrida tugʻilgan boʻlsa-da u kishi keyinchalik Misrda yashab koʻplab ustozlardan fiqh va hadis ilmlarini chuqur oʻrgangan, tariqat yoʻlini tutgan mutasavvif ulamolardan boʻlgan.

¹Muhammad Yusuf Bannuriy. Nasbur – royaga Muqaddimasi. 1393/1973. – B. 8.

²Yusuf Eflan Serkis. Majmua Matbuoti al-Arobiyya. – Misr. 1968. J. 1. – B. 988.; Abdul – Qodir at – Teminu. At-Tabaqot as – Saniyya fi Tarojimu Hanafiyya. – Bayrut. 1410/1989. J. 6. – B. 253.; Abdulhay Laknaviy. Favoidul Bahiyya. – Bayrut: Dorul Maʼrifa. – B. 228-229.

³Jaloliddin Suyutiy. Zaylu Tabaqotil-Huffoz. – B. 362.; Ibn Fahd al-Makkiy. Lahzul-Alhoz. – Bayrut: Dorul Maʼrifa. – B. 128.; Muhammad Ali ash-Shavqoniy. Badrut Taliy bi Mahosinu man Badeʼul Qornis Sabiʼl. – Bayrut: Dor ul-Maʼrifa. J. 1. – B. 307.

⁴**Somali** ([somalicha](#): Soomaaliya) poytaxti — [Mogadisho](#) shahri. [BMT](#) aʼzosi. Somali Demokratik Respublikasi (Jamhuuriyadda Dimoqraadiga yeye Soomaaliya) — Shimoliy Sharqiy Afrikada, Somali yarim orolda joylashgan davlat. Maydoni 638 ming km². Aholisi 15,89 mln. kishi (2020). Poytaxti — Mogadisho shahri Maʼmuriy jihatdan 18 viloyat (region)ga boʻlinadi.

⁵Yoqut al – Hamaviy. Muja al – Buldon. – B. 164-165.;



Imom Zaylaiy hadislar tahrijidagi aniqlik va ularning fiqhiy dalillarini bayon qilishdagi xolisligi bilan mashhur bo'lgan. Immo Zaylaiy fiqhni asosan hanafiy fiqidagi eng nufuzli matnlardan biri **“Kanzud – daqiq”** asariga sharh yozgan ulug' faqih ulamo Imom Faxriddin Usmon ibn Ali Zaylaiy (vaf. 743/1343 y.) dan o'rgangan. Hadislarni Abdullatif Harroniy (vaf. 672/1273 y.) ning bir guruh shogirdlaridan va yana **“Faqihul Qohira va Iskandariya”** laqabini olgan olim Shihob Ahmad ibn Muhammad ibn Qays Ansoriy (vaf. 749/1348 y.), **“Shayxush Shofei”** Shams Muhammad ibn Ahmad ibn Usmon ibn Adlan (vaf. 749/1348 y.), Jamoliddin Abdulloh ibn Ahmad ibn Hibatulloh ibn Buriy Iskandariy (vaf. 767/1365 y.) kabi muhaddislardan eshitgan.

Shuningdek, o'z davrida **“muhaddislar ustoz”** bo'lgan Imom Abul Hajjoj Mizziy (vaf. 742/1342 y.), Imom Shamsiddin Zahabiy (vaf. 747/1347 y.) va yana hanafiy mazhabi usulchisi, faqih olimi, shuningdek, tafsir, hadis va lug'at ilmlarida ham mohir bilimdon Imom Alouddin Mardiniy (IbnTurkmaniy) (vaf. 750/1349 y.) kabi muhaddis ulamolardan ham ta'lim olib, hadis ilmidagi bilimlarini o'stirgan. Bu haqda Taqiyuddin Abu Bakr Tamimiy o'zining **“at – Tabaqotas – saniya”** asarida shunday degan: “U ilm o'rganish bilan mashg'ul bo'lib, ko'plab fazilatlarga ega bo'lgan muhaddislardan hadis eshitgan. “Kanzad – daqiq” asarini sharhlagan Faxriddin Zaylaiy, qozi Alovuddin Turkmaniy va boshqalar qo'lida ilm o'rganib, to “al – Hidoya” va “al –Kashshof” ning hadislarini tahrij qilgunicha hadis kitoblari mutolaasini o'ziga lozim tutdi”⁶.

Abdulloh Yusuf Zaylaiyning asarlari va ilmiy merosi. Imom Zaylaiyning asarlari o'zidan keyin tahrij ilmlari bilan shug'ullangan olimlar uchun asosiy manba bo'ldi. Ko'pgina olimlar o'z asarlarida o'z mazhablarini himoya qiladilar. Ibn Abdilbar o'zining “Al – Istizkor va at – Tamhid” kitobida molikiylar mazhabini, Bayhaqiy o'zining “As – Sunanul – Kubro” va Ibni Daqiq al – Idd “Al – Imom va al – ilmom” kitoblarida Shofei mazhabini, Ibnul – Hadiy “Tanqihut – Tahqiq” asarida esa Hanbaliy mazhabini himoya qiladilar. Zaylaiy esa yuqoridagilarga xilof ravishda hanafiy mazhabi va boshqa

⁶AbdullohibnYusufZaylaiy. Nasbar-roya li ahadisi al-Hidoya. – Bayrut: Muassasatuar-rayyan, 1997. – B. 27.



mazhablarga mansub dalillarning manbalarini birdek tadqiq qilib, ochib bergan. O`zi ergashgan mazhab borasida mutaassiblik qilmadi.⁷

Jamoliddin Zaylaiyning vafoti. Imom Zaylaiy rohimahulloh hayoti haqida ma`lumot beruvchi manbalarda uning tug`ilgan joyi va vaqti haqida emas, balki uning qachon vafot etganligi borasida ko`plab ma`lumotlar berilgan.

Tarixchilar⁸ o`rtasida Imom Zaylaiyning qaysi yili vafot etganligi to`g`risida ixtilof yo`q, balki, hamma tarixchilar uning vafoti borasida ittifoq qilishgan.

Tarixchilardan ba`zilari uni 762 h./1360 m. yili muharram oyida<sup>9</sup> vafot etgan deyishsa, ba`zilari esa Muharram oyida, yana boshqalari esa Muharram oyining 21 – sanasida deyishgan.

Bu ulug` Imomning vafotiga kelsak, Ibn Hajar va Ibn Fahd kabi olimlar ham ijmo qilishgan. Va Suyutiy, At-Tamimiy va Al-Kafviylar ham Imom Zaylaiyni hijriy 762-yilning "etti yuz oltmish ikkinchi yili Muharram" oyida vafot etganligini zikr qilishgan. Ibn Fahd o'zlarining aniqlashtirishlarida: "Muharram oyining o'n birinchi kuni degan. Imom Zaylaiyning tug`ilgan kuni zikr qilgingan biror bir manbaga ko`zim tushmadi.

U kishi Qohirada dafn qilingan va uning vafoti borasida hamma ittifoq qilgan. Ajablanarlisi shundaki, asrdoshlari ham, tarojim olimlaridan ham biror kishi uning qabrini ta`yin qilmagan.

Qohira shahar rejalarida va Al-Maqrizi kabi Misr arxeologlari avliyolarning ziyoratgohlarini va Qohiradagi solihlarning qabrlarini zikr qilishga intilganlar. Misol qilib Al-Saxaviy va boshqalarni keltirishimiz umkin.

Ali Posho Muborak o`zining "Al-Xattat at-Tavfiqiyyah al-Jadiydah" deb nomlangan kitobida uning qabri Bobul vazir ko`chasida ekanligi haqida ma`lumot bergan.¹⁰

⁷ Muhammad Zohid Kavari. Nasbur-Royaga Muqaddimasi. Qohira: Matbaat al-saadat, 1949. – B. 19.

⁸ U kishini hayotlarini o`rganib chiqqan olimlardan Ibni Hajar, Ibni Fahd va Suyutiy rohimahullohlarni misol qilib keltirishimiz mumkin.

⁹ Jaloliddin Suyutiy. Zaylu Tabaqotil – Huffoz. – B. 363.

¹⁰ Ali Miborak Poshsho. Al-Xattat at-Tavfiqiyyah al-Jadiydah. Al-matbaat al-kubro al-amiriyya. Hijriy 1306. 2-juz;103 – b.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jamoliddin Zaylaiy, “Nasbar-roya li ahadisi al-Hidoya” , Bayrut: Muassasatuar-rayyan, 1997 yil.
2. Muhammad Zohid Kavsariy, Nasbur-Royaga Muqaddimasi. Qohira: Matbaat al-saadat, 1949 yil.
3. Jaloliddin Suyutiy. Zaylu Tabaqotil – Huffoz.
4. Ali Miborak Poshsho. Al-Xattat at-Tavfiqiyyah al-Jadiydah. Al-matbaat al-kubro al-amiriyya. Hijriy 1306 yil.